

AZIZ O'QUVCHILAR!  
YANQI-2009-YILINGIZ  
MUBORAK!



Tong

# YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

ISSN - 2010-6092

## QORBOBONING MAQTOVI

**NAMANGAN,  
SAMARQAND,  
NAVOIY...**

Aziz o'quvchilar, ayni kunlarda respublikamizda barcha nashrlarga obuna jarayoni qizg'in davom etayotganidan xabaringiz bor. 10-dekabr gacha bo'lgan ma'lumotnomani ko'zdan kechirib, ro'yxatning birinchi pog'onasini namanganlik o'quvchilar egallab turganidan behad quvondik. Ikkinchi pog'onadan o'rin olgan samarqandlik o'quvchilar hisobiga obunachilarimiz soni yana 18003 nafarga ortibdi.

Shuningdek, Navoiy viloyatidagi obunachilarimiz ham bu yil ro'yxatning uchinchi pog'onasidan joy olibdilar. Ushbu viloyatlarni barchaga ibrat qilsak arziydi.

Qorbobo dunyodagi eng yaxshi bolalarni izlab yo'lga tushibdi. Yo'l yuribdi, mo'l yuribdi, tog'-u tosh, qir-adir oshib, turli shahar va qishloqlarda bo'lib, har yerda eng odobli bolalarni turli sovg'alari bilan xushnud etibdi.

Qorbobo har gal yo'lga tushganda, Qorqiz qaysi mamlakatga borayotganlarini so'rab-surishtirar ekan. Bu gal ham endi so'ramoqchi bo'lib og'iz juftlaganida, uning o'zi:

– O'zbekiston degan mamlakatga boramiz, bolalari juda odobli! – debdi.

– Qanaqa odobli? – qiziqibdi Qorqiz.

– Bu mamlakatning bolalari ota-onalarini, ustozlarini juda hurmat qilishadi. Avtobusda kattalarga joy bo'shatib berishadi. Oralarida odobsizlari bo'lsa, darhol izza qilishadi.

– O'qishda ham ilg'ormi ular?

– Judayam ilg'or. 2008-yilda ular orasidan turli fanlar va sport bo'yicha chempionlar, g'oliblar ko'p bo'ldi.

42-Xalqaro Mendeleev olimpiadasida ham bir guruh bolalar g'olib bo'lishdi. Ularda «Barkamol avlod» va «Universiada» sport o'yinlari ham bor.

– Ular sportni yaxshi ko'rishar ekan-da!

– Albatta, yaxshi ko'rishadi. Sport ularning jon-u dili. Ayniqsa, kurash degan o'yinlari qadim-qadimdan mavjud. Bu shunday ajoyib o'yinki, unda maydonga tushgan jabr ko'rmaydi. Shuning uchun ham «kurash» bugun jahonning juda ko'p mamlakatlariga kirib bordi.

**«SICHQON» OLIB  
KELGAN  
BAXT**

3-betda

**Qo'riqchi  
ari**

4-betda

**Qorbo-  
boni  
sog'indim**

4-betda

**Go'zal  
necha  
yoshda?**

5-betda


Davomi 2-betda





Abdulla ORIPOV,  
O'zbekiston Xalq shoiri:

– Respublikamiz bolalarini Yangi yil bilan muborakbod etaman. Ularga bir narsani eslatib qo'yishni istardim: mustaqil diyorumiz bilan birga Siz ham ulg'ayib, kuchga to'lib boryapsiz. Yurtimizga munosib farzand bo'lishga intiling. Sog'lom va baxtli bo'linglar!



maktub yo'llagan edi. Ha, Sohiba eng birinchi bo'ldi, u inshosida suv haqidagi ajoyib she'rni ham yozib yuborgani esingizdadir? Shundan so'ng, tanlovga xatlar suvdek oqib keldi. Shunday qilib, kim g'olib bo'ldi, deysizmi?

Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanida yashovchi o'quvchimiz Furqatjon Karimov «Unga rahmim keldi» nomli hikoya yozib yuborgan edi. Gazetaning 49-sonida e'lon qilingan inshosida u bir voqea orqali tengdoshlarini suvni asrab-avaylashga chaqirgan. Uning hikoyasi 1-o'ringa loyiq deb topildi. Siz ham bu tengdoshingizning inshosidan ta'sirlangan bo'lsangiz kerak.

2-o'rinni egallagan insho muallifi Namangan viloyatidagi aniq va ijtimoiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 9-«A» sinf o'quvchisi Elyorbek Sirojiddinovdir. Uning inshosi gazetamizning 46-sonida «Suvsiz yashab bo'lmaydi» nomi bilan bosilgan edi.

3-o'rinni toshkentlik tengdoshingiz Diyora Jo'rayeva egalladi. U Yunusobod tumanidagi 260-maktabning 5-sinfida o'qir ekan. Diyora maktab oshxonasida ko'pincha suv jo'mragini ochiq qoldirib ketaveradigan tengdoshlarini ogohlikka chaqirib, o'z inshosini «Suvsizlikni tasavvur qiling» (48-son) deb nomlagan edi.

Biz g'oliblarni qutlab, tanlovda ishtirok etgan barcha o'quvchilarimizga minnatdorlik bildiramiz. Gazetani o'qib, unga xat yozadigan ilm-u ma'rifatga oshno sizdek do'stlarimiz ko'payishini istab qolamiz. Siz haqiqiy a'lochi, bilimdon va eng namunali o'quvchilar ekaningizga ishonamiz. G'oliblar esa o'z sovg'alarini maktablariga yuborgan maktubimiz orqali olishlari mumkin.

Boshi 1-betda

– Ular matematikani ham yaxshi ko'rishadimi?

– Muso Xorazmiy – ularning bobosi. «Algebra»ga asos solgan inson. Endi o'ylab ko'r-chi, bolam, shunday ulug' boboning nevaralari qanday bo'lishi kerak?! O'tgan yili Ispaniya poytaxti Madrid shahrida o'tkazilgan 49-Xalqaro matematika olimpiadasida 4 nafar o'zbekistonlik bola bronza medaliga, 2 nafari esa faxriy diplomga sazovor bo'lishdi. 2008-yil ularda «Yoshlar yili» bo'ldi. Bu yilda mamlakat yoshlarining qo'lga kiritgan yutuqlarini sanab sanog'iga yetmaysan, qizim!

– Unda tezroq borib, ularni tabriklaylik, bobojon!  
– «Tong yulduzi» gazetasi orqali tabriklasak ham bo'ladi.  
– Juda yaxshi fikr, bobojon!

Qorbobo Qorqiz bilan tahririyat mehmoni bo'lib, gazeta jamoasining ahilligini va ularning yurt bolalari uchun qilayotgan mehnatlarini ko'rib hamda «Yosh muxbirlar» to'garagi a'zolarining she'r va hikoyalarini eshitib, juda mamnun bo'libdi, so'ng; bunday debdi:

– Aziz bolalarim! Yurtingizda bo'lib, sizlar uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ko'rib, juda quvondim. Yangi qurilgan va ta'mirdan chiqqan keng va yorug' zamonaviy maktablar, kollejlilar, akademik litseyilar, afsonaviy sport inshootlari sizning unib-o'sishingiz va chinakam komil inson bo'lib yetishishingiz uchun qurilgan. Endi siz shu g'amxo'rliklarga yarasha o'qishda, ishda va har bir o'rinda bir-biringizga namuna bo'lishingiz lozim. Men sizlarni yangi 2009-yil bilan tabriklayman. Sizlarga baxt-saodat hamisha yor bo'lsin!

To'lqin HAYIT

## SUVDEK OQQAN MAKTUBLAR

«Suv – mo'jiza» tanlovi yakunlandi

«Suv–mo'jiza» tanloviga kelgan insholarni o'qib, suvni qadrlaydigan bolalar ko'payib qolganini bilasizmi? Axir hech kim «Bir kunini yo'qotgan bola» hikoyasidagi Omonboyning holiga tushishni istamaydi-da! Qolaversa, siz insholaringizda tengdoshlaringizga suvning qanchadan-qancha mo'jizalar yaratishini, uni qanday qilib asrash kerakligini boplab tushuntirib bera oldingiz. Bu tanlovga birinchi bo'lib Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumanidagi 18-maktab o'quvchisi Sohiba Abduqayumova

## DIREKTORNING YANGI YIL SOVG'ASI

Aziz bolajonlar! Bilasizmi, ba'zi tengdoshlaringiz gazetada she'r-u hikoyalari bosilib chiqsa, «Tong yulduzi»ni qayerdan olishni bilmay qolishadi. Chunki ular gazetaga yil boshida obuna bo'lishmagan-da! Lekin Sirg'ali tumanidagi 300-maktab o'quvchilari sevimli gazetalarini istaganlarida o'qib foydalanishlari mumkin. Chunki ularning sinf xonalarida gazeta taxlami bor.

9-«G» sinf o'quvchisi Go'zal Abdurahimova bu yil yana gazetamizga obuna bo'libdi. Lekin bu yilgi obuna unga direktor sovg'asi emish. Qanday qilib, deysizmi? Bu maktabda «Iste'dodli yoshlar» va «Yosh muxbirlar» to'garaklari faoliyat yuritadi. Uning a'zolari bo'lgan iste'dodli o'quvchilar yaxshigina qalam tebratishadi. Ularning she'rilarini gazetamiz sahifalarida ham o'qigan bo'lsangiz kerak? Ana shu tirishqoq o'quvchilarga maktab rahbari Jamila opa Sindarova gazeta uchun bir yillik bepul obunani tashkil qilibdilar. Endi boshqa o'quvchilar ham direktorning bu sovg'asiga erishish uchun harakat qilishayotgan emish.

SAYYORA

## QISHDA HAM JUDA KO'RKAM

Oila a'zolarimiz bilan bayram arafasida Toshkentda mehmon bo'ldik. Poytaxtimizning obodligi, ko'rkamligini ko'rib, qalbimiz quvonchga to'ldi. Fursatdan foydalanib, «Tong yulduzi» o'quvchilarini bayram bilan muborakbod etamiz. Biz g'ijduvonliklar ham toshkentliklar kabi juda mehmondo'stmiz. Buxoroga mehmonga boring. Tabarruk qadamjolarimizni ziyorat qildiramiz. Ular qish faslida ham juda go'zal bo'ladi.

Flora FAXRUTDINOVA olgan  
surat

ekan.

Kunlardan bir kuni Binafsha gullarni yig'ib majlis qilibdi. Ularga suv qurishining sababini kim topsa va buning oldini olsa, uni «Gullar qirolichasi» etib tayinlashni taklif etibdi.

Binafshaning maslahati gullarga ma'kul bo'libdi va tadbir uchun uchta nomzodni tanlashibdi. Birinchisi – Nastarin, ikkinchisi – Boychechak, uchinchisi – Atirgul etib tayinlanibdi.

Nastarin guli maslahat kuniyoq yo'lga tushibdi va qari Kungaboqarning oldiga borib, undan suv qurishining sababini so'radi:

– Hoy, Kungaboqar, eshityapsanmi? Men Nastarinman. Men sendan buloq qurishining sababini so'ramoqchiman.

– Ha, kimsan? – debdi Kungaboqar. Chunki u qarib qolgani uchun quloqlari eshitmasdi. Undan tayinli javob olish ham mushkul ekan.

– Men Nastarinman, – deya takror o'zini tanitibdi Nastarin. So'ngra, savolini yana qayta so'rabdi.

– Men juda qariman. Hech narsani bilmayman. Xayr! – deya Kungaboqar uyquga ketibdi. Nastarin esa xafa bo'lib iziga qaytibdi.

Boychechak garchand suv izlashga tayinlangan bo'lsa-da, hech kimning oldiga bormabdi. Hech kimdan hech narsa so'ramabdi, u kun bo'yi bekorchilik qilib yuraveribdi.

Izlanuvchan Atirgul yura-yura oxiri quriyotgan buloq boshiga yetibdi. Qarasa, suv oz, undan hech kim to'yib icha olmasligini bilib, yonma-yon o'sayotgan navnihol gullarga achinib ketibdi. Buloq uzoq, ustiga-ustak suv oz. Nima qilsa bo'ladi? Shu payt Atirgulning xayoliga bir g'oya kelibdi. Yaqinlaridagi eski buloq ko'zini ochmoq kerak. (Bu buloqning suvi ko'p bo'lardi). U g'oyasini aytish uchun Nilufar gulining oldiga jo'nabdi. Nilufar guli botqoqlikda yashar edi. U suvdan aslo qiynalmas, ammo suv haqida o'rinni maslahat berishi mumkin.

– Salom, Nilufar guli! – dedi Atirgul.  
– Salom!

## MAZZA QILISHSIN

Men maktabimizdagi bayramlarni yaxshi ko'raman. Ustozim Muqaddas opa Niyozmetova sinfimizda zo'r tadbirlar o'tkazadilar. 2-sinf bo'lishimizga qaramay Konstitutsiya kuniga atab bayram o'tkazdik. Endi maktabimizda Yangi yil tantanasi bo'ladi. Ustozimning aytishlaricha, maktabimiz rahbari Mahfuza opa Muhammedova bu bayramda bolalar bir mazza qilishsin, deb ancha urinayotgan ekanlar. Shuning uchun biz ham buni oqlagan holda II chorakni a'lo bahoga yakunlasak, yaxshi bo'lardi-da! Axir bizning sinfida Jahongir Jonuzoqov, Otabek Mo'minov, Mohira Anvarova, Iroda Ubaydullayeva, Dilnoza Rahmatullayeva kabi a'lochilar ko'p. Yangi yil bayrami sizning maktabda ham zo'r o'tsa kerak, lekin baribir bu bayramda bizning maktabda mehmon bo'ling!

Jahongir PO'LATOV,  
Sirg'ali tumanidagi 269-maktabning 2-«B» sinf o'quvchisi



Yangi yil kirishiga bir daqiqa qolganida, Azamatbek qo'lidagi o'yinchoq sichqonchaga pichirlab: «Yangi yilda menga baxt olib kelgin», degani hanuz yodimda. Ko'z ochib yumguncha bir yil ham o'tib ketibdi. Erta tongdan:

– O'yijon, kelayotgan 2009-yil Sigir yili ekan. Menga o'yinchoq sigir olib bering, – degan iltimosi menga Azamatbekning Yangi yil kechasidagi niyatlarini eslatdi.

Unga:

– O'tgan yili «Sichqon» chadan baxt so'raganingni bilaman. U senga qanday baxt keltirdi? – deb savol berdim.

– Esingizdami, o'tgan yili 6 yoshda edim. O'shanda rus tili, fransuz tillarini o'rganish sinfimizdagi barcha o'quvchilar uchun qiyin kechdi. Bir kuni tanaffusda ustozimiz Rohila Muhammadjonovna: «Yangi yil kirishiga bir daqiqa qolganida, nima niyat qilsangiz, ijobat bo'ladi. Dunyodagi eng katta baxt insonning orzu-niyatlarining ushalishi», degandilar. Yangi yilda sinfdoshlarimning barcha orzu niyatlari amalga oshibdi. Men ham matematika bo'yicha olimpiadada qatnashib, «Faxriy yorliq» oldim. Hozir a'lochi o'quvchilar qatoridaman. Ustozimning aytishlaricha, bu men uchun katta baxt ekan. Bu baxtni chindan ham menga «sichqon» olib kelganmikan, oyijon? – deya savolimga savol bilan javob berdi.

Unga nima deb javob berishni o'ylab qoldim. Keyin esa do'konga kirib, kichkinagina o'yinchoq sigir xarid qildim. O'yinchoqni Azamatbekning qo'liga berib:

– Bu oddiygina o'yinchoq. Sening niyatlarini amalga oshiradi, deb aytolmayman. Lekin Yangi yil kechasida yaxshi niyat qilib, yil davomida aqlli va odobli bola bo'lib yursang, barcha niyatlarini amalga oshadi, – dedim.

Azamatbek o'yinchoqni ko'rib, xursand bo'ldi. Yangi yil kirishiga sanoqli kunlar qoldi. Bu safar u Sigir yilida nimani tilashini bilmayman-u, lekin Yangi yil kechasida qilgan yaxshi niyati ijobat bo'lishini ko'nglim sezib turibdi. Chunki uning yil davomida aqlli va odobli bola bo'lib yurishga harakat qilishini aniq bilaman.

GULYUZ

## «SICHQON» OLIB KELGAN BAXT



## BOLALIK BAYRAMI

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining «Kamalak» bolalar tashkiloti va «O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi hamkorligida o'tkazib kelinayotgan an'anaviy «Yangi avlod» respublika bolalar ijodiyoti festivali farzandlarimizning iste'dod qirralarini kashf etish, san'atning go'zal va maftunkor olamiga oshno etishdek ezgu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Poytaxtimizning «Istiqlol» saroyida mazkur festivalning yakuniy bosqichi g'oliblarini tantanali

taqdirlash marosimi va katta konsert bo'lib o'tdi.

«Yangi avlod-2008» respublika bolalar ijodiyoti festivalining yakuniy bosqichi haqiqiy san'at, go'zallik, nafasat, bolalik bayramiga aylanib ketdi.

Tadbirda festival sovrindorlariga diplomlar va esdalik sovg'alari topshirildi. San'at ustalari, estrada yulduzlari va «Yangi avlod-2008» respublika bolalar badiiy ijodiyoti festivali sovrindorlari ishtirokida katta konsert namoyish etildi.

(Ushbu tadbir va tanlov g'oliblari haqidagi maqola bilan keyingi sonlarda tanishasiz).

## QIROLICHASI

– Men Sizing oldingizga bir masalada kelgan edim.  
– Xo'sh, qanday masala ekan?  
– Suv haqida.  
– Hamma gap tushunarli. Bulog'ingiz quriyotganidan xabarim bor.

– Men yaqinimizdagi eski buloqning ko'zini ochish kerak, degan fikrdaman, – dedi Atirgul.

– To'g'ri o'yilabsan, ammo bu ishni kim bajaradi?  
– Bilolmadim, – xomush tortdi Atirgul.  
– Men bilaman. Sizlarda qo'shni bir qiz yashaydi. U sizlardan guldastalar yasab, dugonalariga taqdim etadi. Uning uchun hayotda puldan ko'ra gul juda muhim.

– U holda men undan yordam so'rayman, – yashnab ketdi Atirgul.

Ertasiga ertalab Atirgul guldasta yasaydigan qizning oldiga yo'l oldi. Qizning ismi Oysuluv bo'lib, u buvisi bilan yolg'iz yashar edi. Qiz guldasta yasashni buvisidan o'rgangan edi. Oysuluv oyday chiroyli qiz bo'lib, ba'zida o'ziga yarashmagan bir fe'li ham bor edi.

Atirgul qo'shni qiz huzuriga yetib kelibdi.

– Hoy, kim bor? – deb ovoz beribdi.

– Hech kim yo'q! – debdi Oysuluv quvlik qilib. Atirgul hayron bo'libdi.

– U holda javob berayotgan kim?

– Men. Sen kimsan?

– Men Atirgulman.

– Senga nima kerak? – deb so'rabdi Oysuluv. So'ngra, uyidan tashqariga chiqibdi.

– Bizga yordaming zarur bo'lib qoldi.

Atirgul maqsadini bayon etibdi. Oysuluv o'jarlik qilibdi, o'ziga yarashmagan bahonalar izlabdi. U desa - bu debdi, bu desa - u debdi.



(Ertak)

Yordam o'rminga:

– Yo'q, mening ortiqcha ishlarga vaqtim yo'q, – deya uyga kirib uyquga ketibdi.

Atirgul uning uyidan qaytib chiqishini uzoq kutibdi, lekin Oysuluvdan darak bo'lmabdi. Atirgul oxiri iziga qaytibdi. Iziga qaytar ekan, orqasiga xomush holda bir nazar solibdi.

Uyqudagi nozanin Oysuluvning tushiga gullar kiribdi. Gullar Oysuluvni pechak guldandan to'qilgan to'r bilan asirga olishibdi va agar buloq qazishga rozi bo'lsa, shundagina uni qo'yib yuborishni aytishibdi.

Oysuluv tushidan qattiq ta'sirlanib, ertasiga darhol gulzorga boribdi. Atirgul uning yo'lidan chiqibdi. U: «Mendan qo'rqib, oxiri kelibdi-da», deb o'yilabdi. Aslida Oysuluv erksizlikdan qo'rqib, gullarga yordam berish uchun kelibdi. U

Atirguldan qaysi buloqning ko'zini ochish kerakligini so'rabdi. Atirgul unga mo'ljaldagi joyni ko'rsatibdi. Oysuluv ishga kirishibdi va gullarning xohishidek buloqdan suv toshib chiqibdi. Zilol suv qizning o'jarligini yuvib ketibdi. Gullar suv seroblidan nihoyatda xursand. Chunki endi yangi buloq bor.

Gulzor ahli oldidagi keyingi masala esa qirolicha saylash edi.


– Bizga buloqning ko'zini ochishni kim taklif etgan bo'lsa va bizni suv bilan ta'minlagan kim bo'lsa, o'sha qirolicha bo'ladi. Negaki, o'sha gul bizni tashnalikdan, hayotimizni halokatdan saqlab qoldi. Biz chanoq nobud bo'lishimiz ham mumkin edi, – dedi dono Binafsha.

– Atirgul obi hayotni qaytardi. Yashasin Atirgul, – degan sadolar yangray boshladi gullar orasidan.

Shunday qilib, Atirgul ko'rsatgan jasorati uchun «Gullar qirolichasi» bo'libdi. Nastarin ham harakat qilib uringani bois gulzor ahli nazaridan chetda qolmabdi. Uni gullar qirolichasiga yordamchi etib tayinlashibdi. Biroq, beg'am, yalqov Boychechak barcha mukofotlardan quruq qolibdi.

Nafisa KARIMOVA,

Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi  
126-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi



## HAZILKASHNING JAVOBI


So'rar muallim:

– Quyosh ne uchun  
Yanvarda ancha  
Erta botadi?

Sinf qolgach jim  
Shunday der Uchqun:

– Tursa kechgacha  
Sovuq qotadi!

## QORLAR



Yerga tushgisi kelmay,  
Tarnovlarga yopishar.  
Tomga yoqqan qorlarning  
Odati shunday qiziq.  
Darrov o'yin topishar –  
Chorlashar bolalarni  
Ko'chaga yoqqanlari  
Bo'lib olib sirpanchiq!

## QISH ELCHISI

– Havo ochiq, yer quruq  
Tomlar bo'lsa... ajab qor.  
Har saharda ahvol shu,  
Bu nima o'zi, Qo'chqor?  
– Ko'rgan narsang qor emas,  
Kun chiqsa, erir darrov.  
U zumrad qish elchisi –  
Qorning ukasi – qirov!

## QORQIZ

Rahmat senga, Qorqizjon,  
Qizdirding davramizni.  
Qorbobong kelgunicha,  
Zeriktirmading bizni.  
Raqsga tushding, she'r aytding,  
Aytding qo'shiq, topishmoq.  
Sira so'zlab bermading  
O'zing haqingda biroq.  
Bordir axir sening ham  
Qor oying va Qor dadang.  
Bordir Qorqiz singilchang,  
Qor ukang va Qor akang.  
Ular bilan tanishish  
Biz uchun juda qiziq.  
Bu yog'i qishki ta'til  
Vaqtimiz ham emas ziq.  
Sendan bitta iltimos:  
Bog'laymiz qamishdan bel.  
Yanagi Yangi yilga  
Barchasini olib kel.

Abdurahmon AKBAR

## MO'JIZALAR KUTIB YASHAYDI...

Bolalikning bekin ko'chalarida har ne mo'jizaga mengzaladi. Hayratlarimiz ortida sirli sanoatlar deya ishonganimizdan topganimiz dunyoning haqiqatlari umming hikmatlariga aylanib bo'y ko'rsatadi: bolalikning bemisol qudrati, orzu o'ylari, azmi-shijoati, yaratuvchanligidan hayajonimizga qanoat bitadi. Har maqsad kishining orzulari ro'yobidan ko'ngillar yuksaladi, ko'ngillar ko'ngillarni tavof qiladi.

Bunday elning o'g'lonlari har sohada yurtning yuzi, pahlavonlari bo'lib ulg'ayadi, qizlari – Barchinoyga bo'y roslaydi...

Ana shunday tahsinlarga munosib yoshlik har soniyalardan mo'jizalar kutib yashaydi... va kutgani albatta ijobat bo'lishiga ishonadi. Mana shu ishonch

ortida umid, izlanish, iqrar, qat'iylik, dadillik va bir qudrat poydevori tiklanadikim, u murod manzillariga yetaklovchi kuchga aylanadi. Yangi yilda yurtimizning har bir o'g'il-qiziga ana shunday qudrat oshno bo'lishni tilab qolamiz.



Dilfuza SHOMALIKOVA,  
«G'uncha» jurnalining Bosh muharriri

## QORBOBONI SOG'INDIM!



Biz u paytlar yosh bola edik. Qishning qahraton sovuq kunlarida ham otam ro'zg'orning qora qozoni qaynab turishi uchun tinim bilmasdi. Tog'dagi bog'larimizdan keltirilgan yong'oq, tutmayiz, shirni kabi mahsulotlarni olib, yarim tunda bozorga chiqib ketardilar. Biz bolalar esa bozorchiarning bozordan qaytishini intiqqina kutib o'tirardik. Negadir otamning bozordan qaytishlari qiyin kechardi. Olib borgan mahsulotlari goh o'tib, goho o'tmay xunob bo'lganlarini ko'p bora eshitganman. Kechga yaqin bozordan qopni to'ldirib qaytgan otamizni ko'rganimizda, quvonchdan olamga


sig'may qolganmiz. Usti boshlari oppoq qor bo'lgan otamiz holatlari menga Yangi yilda sovg'a ulashib chiqadigan Qorboboni eslatardi. Onam otamning qiynalishlarini sezgani bois, u kishining atrofida parvona bo'lardi. Biz uchun qorli kunlar doimiy bayram bo'lgan. Negaki, mahsulotlarimizni odamlar qattiq sovuq tushgan paytlarida ko'proq xarid qilishardi. Yong'oq, tutmayiz hamda tutning shirni sovuqda iste'mol qilinsa, inson uchun koni foyda ekan. Otamning bozordan keltirgan qopidagi shirinliklarni onamiz Qorqiz kabi bizlarga ulashib chiqardilar. Eh, qanday ajoyib damlar ekan bolalik! Har gal qor yoqqanida ko'z o'ngimda bolalikning o'shal go'zal manzarasi namoyon bo'laverardi. Bugun otam to'qson yoshni qoralab, haqiqiy Qorboboga aylanib qoldilar. Ammo atroflarida parvona bo'lgich Qorqizlari yo'q...

Otam tog'da kezgan Qorbobo,  
Qorqizini izlab yuribdi.

Quchog'iga sig'magan dunyo,  
Ko'zlaridan makon quribdi...

Biz bolalar ulg'ayib bolalarimiz uchun sovg'a izlash bilan bandmiz. Ajib dunyo ekan...

Axtamqul KARIM



## QO'RIQCHI ARI

Bu qanday ari ekan, deb hayron bo'layapsizmi? Hech ham hayron bo'lmang. «Qo'riqchi ari» bu – arilarni yovvoyi qushlardan himoya qiladigan qurilma bo'lib, qurilmani Samarqand shahridagi 13 - umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Jahonbek Sadinov Respublika «Texnik ijodiyot ko'rgazmasi»da ixtiro qilib, faxrli ikkinchi o'rinni egallashga muvassar bo'ldi.

Jahonbek o'tgan yili yozda bobosining dala hovlisida dam oldi. Uning bobosi ko'p yillardan beri asalarichilik bilan shug'ullanadi. U asal yetishtirishning qanchalik qiyin ekanligini va ularning kamayishiga sabab bo'ladigan asosiy omillardan biri bu – qushlar muammosi ekanligiga guvoh bo'ldi. Asalari uchun eng xavfli qush bu – sariq bo'zdaklar hisoblanib, ular katta-katta oila bo'lib yashashini bobosidan so'rab bildi. Asalarichilar uni «uchuvchi vabo» deb atashadi.

Jahonbek u yerdan qaytgach, bu qurilmani ixtiro qilishga ahd qildi va tinimsiz izlandi.

«Qo'riqchi ari»ni u faner va DVP chiqindilaridan yasadi. U o't-o'langa o'xshagan maxsus gilamcha va orqa foniga chiroyli o'rmon manzarasini qo'ydi. O'tga o'xshagan gilamcha bo'laklari rezina yelim yordamida yopishtirilgach, qushlarni qo'rqitish uchun qurilmada katta

ari maketi o'rnatildi. Uning qanotlariga parraklar biriktirilgan. Parraklar quyosh energiyasi va shamol yordamida harakatlanadi. O't-o'lanli gilam sathida shamol tegirmoniga o'xshash katta parraklar ham joy olgan bo'lib, unda turli rangdagi chiroqlar yonib turadi va ular shu tariqa qushlarni arilarning inlariga yaqinlashtirmaydi.

Qurilma ishlatilganda, ekologiyaga zararli ta'siri bo'lmaydi. U quyosh hamda shamol energiyasi bilan ishlaydi. Ixtironing ishlash jarayoni shovqinsiz bo'lib, odam ishtirokisiz amalga oshadi va eng muhimi, ona tabiatimizga zarar yetkazmaydi.

Sher ALI tayyorladi

## SEHRGARNING SOVG'ASI



Oylar bir-bir aylanib,  
Yil birpasda o'tadi.  
Yangi yilda bolalar  
Sovg'alarni kutadi.

Uni yostiq tagiga  
Qorbobo qo'yar doim.  
– Bekor gap, – deydi akam,  
– O'sha Qorbobo – oyim.

Ishonmasang ichingda  
Biror narsa so'ragin.  
Bilarmikin Qorbobo,  
Sening orzu tilaging.

– Nega endi bilmaskan?!  
U biladi, albatta.  
Yo'qotuvdim qo'lqopni,  
Qo'lqop so'rayman shartta.

Mana, kelar Yangi yil  
Soatlar ham bong chalar.  
Qor ko'rpsin yopingan,  
Hovlilar va ko'chalar.

Qanday sovg'a bor ekan,  
Yostig'imni olaman.  
Olaman-u, qo'lqopni  
Ko'rib hayron qolaman.

Qarang, qo'lqop qo'limga  
Loppa-loyiq, mos ekan.  
– Aka! – dedim, – Qorbobo  
Borligi, ha, rost ekan.

Oyijonim jilmayib  
Sochlarimni siladi.  
– Sehgardir Qorbobo,  
Tilagingni biladi.

Akam deydi: – Tentakvoy,  
Hovlida qor kurading.  
Oyimlarning oldida,  
Mendan qo'lqop so'radim.

Qo'lqop – oyim sovg'asi,  
Shundan qilgin xulosa.  
Ularning gapi bilan,  
Qilib bo'lmas muros.

Akamlarga xo'mrayib  
Qo'ydim qayta-qayta man.  
Qorboboning borligin  
Men hammaga aytaman.

Kavsar TURDIYEVA

## TANAFFUS TABRIKLARI

Aziz tengdoshlar! Menda bir taklif bor. Tanaffusda bir-birimizni bayramlar bilan tabriklasak, yaxshi tilaklar bildirsak, zo'r ish bo'lardi! Tasavvur qiling, do'stingiz sizni gazeta orqali Yangi yil bilan tabriklasa, rosa xursand bo'lasizmi? Men ham yaqin dugonalarim Musharraf va Madinalarni Yangi yil bayrami bilan tabriklayman. Doimo shunday a'lochi, namunali qizlar bo'lib yurishsin!

**Manzura ABDURASULOVA,**  
Andijon viloyati, Andijon  
shahridagi 35-maktabning 6-«V» sinf o'quvchisi



*Yunusobod tumani, «Obod» mahallasida joylashgan «Qo'ng'iroqcha» nomli bolalar bog'chasida ham Yangi yilda katta bayram bo'ladi. Shu bog'cha tarbiyalanuvchisi Madina Aslanova ham bayramga atab she'rlar yod olibdi, chiroyli ko'ylak tikdiribdi.*

## GO'ZAL NECHA YOSHDA?

Go'zal ilk bor bog'chaga borgan kuni bog'cha opasi Go'zal bilan yaqinroq tanishish maqsadida savol berdi:

- Isming nima, lo'bar qiz?
- Ismim Go'zaxon! - javob qildi qizaloq.
- Yoshing nechada?
- Opamdan 2 yosh kichikman.

Bog'cha opa taajjublanib:

- Opangning yoshi nechada? - deb so'radi.
- Opam akamdan 4 yosh kichik.
- Akang necha yoshda? - deb so'radi bog'cha opasi

ajablanib.

Go'zalnig xunobi oshib:

- Uf, nega tushunmaysiz, axir akam opamdan 4 yosh katta, men esa opamdan 2 yosh kichikman! - deya javob qildi.
- Xo'sh, Go'zal necha yoshda? Toping-chi?

**Eslatma:**

Birinchi javob yo'llagan muxlisimizni ajoyib sovg'a kutadi. Javobi keyingi sonda bo'ladi.

**Lolaxon ODILJONOVA**



*Aziz bolajonlar,  
rassom akangiz Sur'at SALOHIDDINOV  
chizgan ushbu rasmga qarab ertak yozing  
va bizga yuboring.*

## PAND BERGAN QORBOBO VA QORQIZ

Bog'chaga qatnab yurgan paytlarimda Qorbobo va Qorqizning to'qima qahramon ekanliklarini bilmasdim. Singlim ikkimiz Yangi yil kechasi Qorboboga xat yozib, yostig'imizning tagiga qo'yib yotardik. Ertalab uyg'onganimizda, Qorbobodan olishni istagan o'yinchog'-u qo'g'irchoqlarimiz, shirinliklarimiz chiroyli zarli qog'ozlarga o'ralgan archa tagida muhayyo bo'lardi. Keyinchalik bilsam, bizga sovg'alar ulashadigan Qorbobo va Qorqiz aslida oyim va dadam ekan.

Bir voqea hecham yodimdan chiqmaydi. Bog'chamizda Yangi yil bayrami bo'layotgandi. Sunnatilla ismli bir bola bizga sovg'a ulashayotgan Qorboboning soqolini bosib oldi. Niqobi yechilgan Qorbobo aslida bizga sovg'a ulashish uchun olis o'rmondan kelgan saxiy bobo emas, tarbiyachi Manzura opamiz ekanlar.

7-sinfda o'qib yurgan kezlrimizda 1-sinf o'quvchilariga Yangi yil tomoshasini qo'yib berayotgandik. Dilnoza ismli dugonamiz Qorqiz bo'lishi kerak edi. Navbat poylab zerikib o'tirganimizda, Dilnoza boshidagi Qorqizning tillaqoshini yechib, Yalmog'izning niqobini kiyib oldi-da, bizni rosa kuldirdi. Oradan biroz muddat o'tgach, kichkintoylar baland ovozda Qorqizni davraga chorlashdi. Dilnoza ogohlantirishimizga ham qaramay, sahnaga oshiqdi. Ajoyib

«Qorqiz»ni ko'rgan 1-sinf o'quvchilari qiyqirib kulib yuborishdi. Gapning nimadaligini sezgan Dilnoza yig'lagan sahnani tark etgandi.

Hozir esa bu voqeani kulib-kulib eslab yuramiz.

**Shahnoza G'ANIYEVA,**  
Uchtepa tumanidagi 116-  
maktabning 8-sinf o'quvchisi



## QOR

Osmondan nurday bo'lib  
Yog'iladi oppoq qor.  
Oh, naqadar sokinsan,  
Sen shunchalar beg'ubor.

Bugun dala-dasht oppoq  
Gilam bilan qoplangan.  
Qorning tagida maysa,  
Sovuqdan xo'b toblangan.

Oppoq orzu misoli,  
Yog'averin, oppoq qor.  
Shodlik, quvonch ulashib,  
Yog'averin, pahmoq qor.



**Dilafro'z QO'SHOQOVA,**  
Samarqand viloyati,  
Qo'shrabot tumanidagi  
55-maktab o'quvchisi

## YOMG'IR

Bulutni kimdir sog'yapti, yomg'ir yog'yapti. Yomg'ir asta-asta yog'yapti. Yomg'ir derazani chertib-chertib yog'yapti. Yomg'ir yaproqlarni yuvintiryapti. Yomg'ir yuraklardan ham chakka o'tkazib yubordi, ezib-ezib yog'yapti.

Yomg'ir... Hozir ko'zlarimdan jala quyib yubormasaydi...

**Mehrinov ABBOSOVA,**  
Namangan shahridagi 57-maktabning 6-sinf o'quvchisi

Xudoyberdi TO'XTABOYEV,  
O'zbekiston Xalq yozuvchisi:



– 2009-yilni Prezidentimiz «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e'lon qildilar. Menimcha, ushbu taraqqiyotga bolalar ham o'z hissalarini qo'shishlari kerak. Buning uchun nafaqat qishloqda o'sayotgan, balki butun Respublikadagi bolalar yaxshi o'qib, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishlari lozim. Shundagina kelajagimiz egalari barcha umidlarimizni oqlaydilar. Shunday ekan, Yangi yilda barcha o'g'il-qizlarimga sihat-salomatlik tilab qolaman!



## USTOZ

Onam kabi mehribon  
Menga ziyo baxsh etding.  
Boshlab borar zo'r karvon,  
Yuragimni naqsh etding.  
Ayamading kunlaring,  
Ilm berding bearmon.  
Bedor etib tunlaring,  
Yo'lim etding nurafshon.  
Bolday shirin so'zlaring,  
Ta'rifingga yetmas so'z.  
Nurday boqar ko'zlaring,  
Senga boqar barcha ko'z.



Nilufar ABDUSAMATOVA,  
Jizzax tumanidagi 11-maktabning  
9-sinf o'quvchisi

## HAYOT HIKMATI

**Bobo – bog'bon. Momo – bo'ston. Ota – posbon. Ona – qo'rg'on. Farzand – hosil. Kelin – bir sir. Nabira – nasl. Qalb esa asl...**

**Qalb asldir, qalb saxiydir, qalb vahiydir, qalb erur boqiy...**

### EY, DIL...

Ey, dil! Ayt-chi, asling nedandur?  
Aslim MEHRning hosilasidir.

Ey, dil! Bu mehri olding qaydan?  
Maskani sen va men o'sgan Vatan.

Ey, dil! Bunchalar bag'ring keng?  
Ezgulikdir maslagim mening

Ey, dil! Shoshasan buncha?  
Qalbi siniq, intiqlar ancha...

Ey, dil! Nedur qallda halovat?  
Harakat, saxovat hamda qanoat...

Ey, dil! Ne erur tanning rohati?  
Qo'l mehnati va qalb harorati.

Ey, dil! Toshidan qattiq nedur, aytgil?  
Ul kimsadur – toshbag'ir butkul.

Obiddin MAHMUDOV



(Ertak)

Aman tog' nolibdi. Uning arzini eshitgan bola uyatdan qizarib qolibdi. Chunki axlatlarni o'sha bola ham tashlagan edi-da. Bolakay toqqa qarab:

– Meni kechir, ey, Aman tog', – debdi.

– Mayli, sen aytganicha bo'la qolsin, lekin bu ishingni ikkinchi marta qilma.

Aman tog' bolaga:

– Ey, bolakay, sening isming nima? – debdi.

Qilgan ishidan uyalgan bola sekin boshini ko'tarib, «Sardor» debdi.

– Ha, sening isming juda chiroyli, ma'noli ekan. Sen faqat yaxshi bolalarning Sardori bo'lgin, – debdi bolaga.

Shunday qilib, bola Aman tog'dan nasihatlar eshitib, bolalarning sardori bo'libdi.

Munira BAHODIR qizi

## «Katta bobo» bekati ULG'AYISH BAXTI

Aziz bolajonlar!

Bugungi suhbatimiz 2009-yil sarhisobiga bag'ishlansa, nima deysiz? Ha, aziz o'g'il-qizlarim, yana bir necha kundan so'ng barchamiz orziqib kutgan Yangi yil kirib keladi. Uni qanday kutib olsak, yil davomida shunday mazmunli kunlar davom etishini bilasizmi?

Oxirlab borayotgan yilni kuzatar ekanmiz, yoshimiz yana bir yoshga ulg'ayganidan quvonchga to'lamiz. Yoshlarimizga yosh qo'shilgani bois aqlimiz yana-da teranlashib, borliq olamga yana-da zukko nazar tashlayotganimizni hatto anglamay qolamiz. Imonim komilki, yakunlanayotgan yil dillarimizda o'zgacha iz qoldirmoqda.

Yilni kuzatar ekanmiz, bilim egallashda erishgan yutuqlarga nazar tashlash bilan birga nimalar boy berilganini esga olsak, foydadan holi bo'lmas. Shuni unutmaslik lozimki, sizning bugungi kundagi asosiy maqsadingiz – maktabda a'lo baholarga o'qib, sinfdan-sinfga o'tishdan iborat. Shu bilan birga, ota-onangizga mo'min, qobil farzand bo'lishni esdan chiqarmaslik darkor.

Yil o'tgan sayin yoshingizga yosh qo'shilib, bilimingiz ortib boradi. Buning uchun qunt bilan o'qishingiz, yoshi ulug'lar so'ziga quloq tutishingiz, ustozlar izmidan chiqmaslik kerak. Agar shunga amal qilsangiz, har doim orzu-havaslaringiz amalga oshaveradi.

Aziz o'g'il-qizlarim, yana bir necha kundan so'ng har biringizga baxtiyorlik ulashadigan Yangi yil tashrif buyuradi. Sezib turibman, 2009-yilni intazorlik bilan kutgan holda unga o'zgacha tayyorgarlik ko'rib qo'ygansiz. Boz ustiga, Yangi yil kirishi bilan o'quv yilidagi eng uzoq davom etadigan ta'til ham boshlanadi. Bu damlarning nechog'li esda qolarli bo'lishi esa o'zingizga bog'liq. Har biringiz o'zingizga mos yumush topib, ta'til kunlarini yana-da maroqli o'tkazishingiz lozim.

Ota-onangiz sizni xursand qiladigan bisyor sovg'alar hozirlab qo'ygan bo'lishlarini istayman. Ular sizni Yangi yil archasi atrofidagi sayllarga olib borishsa, ayni muddao bo'lardi. Siz u yerda tengdoshlaringiz davrasida Qorbobo va Qorqiz bilan uchrashib, ertaklarning sehrli olamiga oshno bo'lasiz. Bundan tashqari, badiiy kitoblarni o'qishni kanda qilmang. Ta'til deb hadeb kompyuter o'yinlaridan bosh ko'tarmaslik odobdan emas. Albatta, bu ishlarni ham vaqti-soati bilan bajargan ma'qul. O'tilgan dasrlarni takrorlab turish ham lozim.

Aziz farzandlarim, sizga ulg'ayish baxti nasib etganidan behad baxtiyorman. Yana bir yoshga ulg'ayib, har tomonlama kamol topishingiz uchun imkon yaratilgani rost bo'lsin! Siz ana shu ulg'ayishning beg'ubor onlaridan unumli foydalangan holda bor imkoniyat va bilimingizni sarflashingiz darkor.

Islom USMONOV

## AMAN TOG'

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Bir zamonda bir tog' bo'lib, u juda ulkan ekan. Bir kuni bolakay uning yonidan o'tib ketayotgan, Aman tog': «Hey, bola!» debdi. Bola hayron qolibdi-da: «Ey, tog', sen gapiryapsanmi? Sen axir tog'san-ku», debdi.

– Ha, men tog'man, ammo men ham odamlarga o'xshab gapiraman, ya'ni senga o'xshab. Senga o'xshagan bolalar bu yerlarda sayr qilishadi, lekin ust-boshimga axlat tashlaganlari yomon. Agar axlat tashlasalar, men juda xafa bo'laman, ust-boshim kir bo'ladi», deb

Aman tog' nolibdi. Uning arzini eshitgan bola uyatdan qizarib qolibdi. Chunki axlatlarni o'sha bola ham tashlagan edi-da. Bolakay toqqa qarab:

– Meni kechir, ey, Aman tog', – debdi.

– Mayli, sen aytganicha bo'la qolsin, lekin bu ishingni ikkinchi marta qilma.

Aman tog' bolaga:

– Ey, bolakay, sening isming nima? – debdi.

Qilgan ishidan uyalgan bola sekin boshini ko'tarib, «Sardor» debdi.

– Ha, sening isming juda chiroyli, ma'noli ekan. Sen faqat yaxshi bolalarning Sardori bo'lgin, – debdi bolaga.

Shunday qilib, bola Aman tog'dan nasihatlar eshitib, bolalarning sardori bo'libdi.

Munira BAHODIR qizi

## «TONG YULDUZI» – YANGIYO' LDA



Mehr ko'zda, deytilar. Zero, nafaqat mehr, balki ko'ngildagi gap, istak, niyat va sevinch ham ko'zga jo bo'lishi ayni haqiqatdir. Biz Yangiyo'l tumani, Niyozbosh qishlog'ida 23-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan shukuhli uchrashuvda shunday go'zal holat – ko'ngil sog'inchi, ko'ngil mehri va sevinchning ko'zlarida quyoshdek porlaganining guvohi bo'ldik.

Bu quvonchning yana bir o'ziga xos sababi borki, bu haqda alohida yozmasak bo'lmaydi. Maktab jamoasi va o'quvchilarining, qolaversa, qishloqning «Namuna» va «Ittifoq» mahallalarida yashovchilarning ko'p yillik orzulari 2008-yilda ro'yobga chiqdi. O'quvchilar yangi 2008-2009-o'quv yilini Mustaqilligimizning 17 yilligi arafasida qurilib, foydalanishga topshirilgan 540 o'rinli, 2 qavatli, yorug', shinam yangi maktabda boshladilar. Bu ilm koshonasidan kelgusida Vatanimiz ravnaqi, farovonligi yo'lida hormay-tolmay izlanuvchi, mehnat qiluvchi olimlar, ziyolilar, muhandislar yetishib chiqishi shubhasiz.

Mana shu maktabning yangi binosida bir guruh ustozlar va o'quvchilar o'zlarining sevimli gazetalari

–«Tong yulduzi» gazetasining Bosh muharriri – yozuvchi To'lqin Hayit, «Yangiyo'l» shahar va tuman gazetasi muharriri – jurnalist Ahmadjon Rixsiboyev va Cho'lpon nomidagi NMIU muharriri – bolalar shoiri Abdurahmon Akbar bilan ijodiy uchrashuv o'tkazdilar.

Maktab direktori – oliy toifali o'qituvchi Yoqubjon Soibnazarov o'quvchilarni mehmonlar bilan tanishtirib, maktabning o'ziga xos tarixi, yangi o'quv binosining ochilishi, pedagogik jamoaning bugungi kunda olib borayotgan o'quv ishlari haqida to'lqinlanib so'zlashdi. Yurtboshimizga, hukumatimizga, mana shunday ajoyib maktab binosini bunyod etgan mutasaddi rahbarlarga o'z minnatdorchiligini izhor etdi.



Nodira Ne'matillayeva, Xumora Qochqorova, Durdon Abdullayeva, Otabek Sa'dullayev singari o'quvchilar Vatan, ustoz,

ona mavzularidagi o'z ijod namunalari bilan o'qib berdilar. Matbaachilik, noshirchilikka oid o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javoblar oldilar.

Yozuvchi To'lqin Hayit «Shohi Zinda», «Vafo malikasi» kabi asarlari va «Tong yulduzi» gazetasining so'nggi sonlari to'plamini hamda taqvimini kitobsevar o'quvchilar, o'qituvchilar hamda maktab kutubxonasiga tuhfa qildi.


Maktabning ona tili va adabiyot o'qituvchisi Mahfuza Porsitillayeva

«Tong yulduzi» o'quvchilarining eng sevimli nashrlaridan biri ekanini, bu yil gazetaga o'quvchilar har yilgidan ko'proq nusxada obuna bo'lganliklarini gapirib berdi.

Shundan so'ng, «Yangiyo'l» gazetasi muharriri, shu maktabning sobiq o'quvchisi Ahmadjon Rixsiboyev so'zga chiqdi. U maktab pedagogik jamoasiga omad va baxt tiladi. Uchrashuv ishtirokchilari e'tiborini 2008-2009-o'quv yili –«Ta'lim-tarbiya» muassasalarida ijodiy muhitni rivojlantirish o'quv yili ekaniga qaratib, Yangiyo'l gazetasi jamoasining «Tong yulduzi» gazetasi jamoasi bilan yaqindan hamkorlik qilib kelayotgani, bu kabi ijodiy uchrashuvlar Yangiyo'l tumani maktablarida ko'pdan, muntazam ravishda o'tkazilayotgani haqida so'zlashdi.

Uchrashuv so'ngida taniqli jurnalistlar o'z kitoblariga dastxatlar yozib berdilar, esdalik suratlariga tushdilar. Mana shu shukuhli uchrashuv lahzalari muhrlangan suratlarni siz gazetxonlar e'tiboriga havola etayotirmiz.

Suratda: uchrashuvdan lavha.  
I.Galiyev olgan suratlari.



## SIGIR YILI BAXT KELTIRSIN!



Sharq taqvimi bo'yicha 2009-yil Ho'kiz (Sigir) yili deb belgilangan. Bu yilda tug'ilganlar sabr-toqatli, kamgap, ishonchga loyiq, vazmin, yaxshi fe'l-atvorli kishilardir. Boshqalardan chuqur mulohaza yurita oluvchi aql-zakovat egasi ekanliklari bilan ajralib turadilar. Odatda kamgap, biroq, ilhom kelganda gapdon bo'lib ketishadi. O'zlariga qarshilik ko'rsatilishini yoqtirishmaydi. Boshlagan ishi muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, o'zlarini qo'yarga joy topolmay qolishadi. Yaxshisi, ularga qarshilik ko'rsatmagan ma'qul. Ushbu yilda tug'ilganlar hukmini o'tkazadigan, jahli tez kishilar sirasiga kiradilar. O'jarliklari tufayli kamdan-kam odam ularni tushuna oladilar. Shunga qaramay, Sigir yilida tug'ilganlar oilasiga baxt-saodat keltiruvchi haqiqiy mehnatkash inson hisoblanadi. Shunday ekan, 2009-yil kimga qanday kelishi kutilmoqda?

**SICHQON** yilida tug'ilganlar uchun yangi 2009-yil omadga erishish, uyda va maktabda o'zlarining qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatini beradi.

**SIGIR**(Ho'kiz) yilida tug'ilganlar yangi yilda uzoq o'ylagan rejalarini amalga oshirish, og'ir yumushlardan o'zlarini ozod etish, sayohatga chiqish, oilada boshqaruvchilikni qo'lga olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

**YO'LBARS** yilida tug'ilganlar kelayotgan yilda rejalashtirilgan ishlarni yakunlaydilar. Shaxsiy muammolarni hal etib, ziddiyatli holatlar yuzasidan to'g'ri qaror qabul qila oladilar.

**QUYON** yilida tug'ilganlar 2009-yilda boshqa yillarga nisbatan vaqtlarini quvnoq va a'lo darajada o'tkazadilar. Ko'plab yangi tanishlar orttirishlariga qaramay, qo'llaridan kelmaydigan ishlarni bajarishga va'da bermasliklari maslahat beriladi.

**AJDARHO**(Baliq) yilida tug'ilganlarga yangi yilda muvaffaqiyatga erishishlari uchun foydali ishlar bilan mashg'ul bo'lishlari tavsiya etiladi. O'tkinchi tuyg'ularga berilmay, to'g'ri qaror qabul qilsalar, ularga omad kulib boqadi. Buning uchun ba'zi bir odatlarini yo'qotishlari zarur.

**ILON** yilida tug'ilganlarga 2009-yil juda omadli kelishi kutilmoqda. Omadga erishish

uchun barcha imkoniyatlarini ishga solsalar bo'lgani. Shunda kelayotgan yilda maqto'v va rag'batga sazovor bo'la oladilar. Kelayotgan yangi yilda ular sayohat qilishlari mumkin.

**OT** yilida tug'ilganlarga 2009-yilda turli ko'ngilsizliklardan uzoqroq yurish tavsiya qilinadi. Ularga yangi yilda shaxsiy hayotlarini yaxshi tomonga o'zgartirish imkoniyati mavjud. Yaqinlariga g'amxo'r bo'lib, qiziqarli ishlar bilan mashg'ul bo'lsalar, yangi yil ularga omad keltiradi.

**QO'Y** yilida tug'ilganlar atrofdagilarga o'zlarining nimalarga qodir ekanliklarini namoyon etadilar. Ularga yangi yilda sog'liqlariga va oila

a'zolariga e'tiborli bo'lishlari maslahat beriladi.

**MAYMUN** yilida tug'ilganlar 2009-yilda omad va muvaffaqiyatlarga o'zgaralar ko'magisiz mustaqil erisha oladilar. Tashqi ko'rinishlariga ko'proq e'tibor berib, ko'ngillarini xotirjam qilib oladilar.


**XO'ROZ**(Tovuq) yilida tug'ilganlar uchun kelayotgan yil romantikaga boy bo'ladi. Sigir yili ularga biroz mashhurlikni va'da qilmoqda. 2009-yilda imidjlarini o'zgartirish ularga omad keltiradi.

**IT** yilida tug'ilganlar yangi yilda eski yumushlarini tartibga solishlari lozim. Ularga barcha boshlagan ishlarini yakunlab, diqqat-e'tiborlarini uy yumushlariga qaratishni tavsiya qilinadi.

**TO'NG'IZ** yilida tug'ilganlarga 2009-yilda qiyin vaziyatlardan yiroqlashib, o'zlarini boshqa sohada sinab ko'rishlarini maslahat beriladi. Yangi yilda ular ko'ngilsiz hodisalardan ustun kelib, yaqinlari bilan aloqani mustahkamlashlari tavsiya etiladi.

Kelayotgan 2009-yil barchaga baxt keltirsin!

ZEBO qiz tayyorladi



*Bolalar, sizlar ismi sportsevar muxlislarga tanish Anton Fokin degan gimnastikachi bolani bilsangiz kerak-a? U 2007-yil jahon chempionati hamda 2008-yilda Pekin Olimpiadasida bronza medaliga erishib, yurtimiz nomini yana bir bor dunyoga ko'z-ko'z etdi.*

Antonning keyingi ikki yildagi erishgan katta yutuqlariga uning talabchan va mehnatkash murabbiyi Shuhrat aka Mamadaliyev munosib hissa qo'shdi.

Yuksak natijalar hamisha insonga olqish olib beradi. Ayniqsa, yildan-yilga mahorati oshib, yutuqlari ko'paygan chempion Yangi yilni ham yangi rejalar, yangi omadlar bilan kutishni xohlaydi.

Biz yaqindagina katta yutuqlari davlatimiz tomonidan va Respublika gimnastika federatsiyasi tomonidan munosib baholangan ustoz va shogirdning quvonchlariga sherik bo'ldik. «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan

## QO'LI BALAND BO'LSIN!



sportchi» unvoni hamda «Matiz» avtomobili sohibiga aylangan Anton Fokin va Shuhrat aka Mamadaliyevni chin dildan qutladik. Murabbiyni bayram bahona suhbatga chorladik.

– Shuhrat aka, Yangi yil sizga qo'shaloq sovg'a tuhfa etibdi. Tabriklaymiz!

– Rahmat. 2008-yil men uchun barcha yillardan-da samaraliroq bo'ldi. Bolalar va o'smirlar bilan ishlashning o'ziga yarasha mashaqqati, shuningdek, siz kutmagan rohati bo'ladi. 10 yildan oshdi, poytaxtimizdagi 14-sonli gimnastikaga ixtisoslashgan olimpiya zahiralari sport maktabida ishlayman. Maktabimizda sportchi bolalarning hammasida havas qilarli qobiliyat bor. Ivan Olushev, Ostap Malnev, Hamid Sodiqov, Asliddin Ochilov, Umar Ikromov kabi shogirdlarim bugun respublika chempionlaridir. Anton ham mening shogirdim. Biz har kuni zalda «brus»da, «ot»da, «halqa»da va boshqa jihozlarda mashqlar bajaramiz.

Shogirdimning charchadim degan gapini eshitmaganman. Anton doimo o'ziga e'tibor beradi. Ya'ni, kun tartibini rejalashtirgan sportchi bola. Har kuni 11:30 da boshlanadigan mashg'ulotlarga o'z vaqtida yetib kelishi meni ham mas'uliyatga o'rgatgan. Ana shu bolalar menga «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan murabbiy» degan faxrli nomni olib berdilar. Bolaligimda o'zimga gimnastikadan saboq bergan Saler Kvetnoy va Antoliy Olushevga minnatdorlik izhor etdim.

– Turli gimnastik jihozlarda qiziqarli va murakkab kombinatsiyalar ishlab chiqish va uni bexato bajarish g'alabaga boshlaydi. Siz mashqlarning xilma-xilligi borasida qanday manbaalardan foydalanasiz?

– Musobaqalarda raqiblar bajargan mashqlarni o'rganib chiqib, mashg'ulotlarda o'z qo'shimchalarimizni qo'shamiz. Natijada, dastur yangicha fikr bilan uyg'unlashadi.

Yurtimizga yangi – 2009-yil go'zal orzu, beqiyos imkoniyatlari ila tashrif buyurmoqda. Yurtimiz sharaflil g'alabalarni qadrlaydi, murabbiylar mehnatini e'zozlaydi. Yurtida siz kabi murabbiylar doimo bor bo'lsin, Shuhrat aka!

Yangi yilda shogirdlaringiz qo'li baland bo'lsin.

*G'OLIBA suhbatlashdi*

# AYLANMA SKANVORD

## 2009

A large circular word search puzzle for the year 2009. The puzzle is shaped like a globe and contains various words and phrases. Some words are highlighted with decorative borders. The words include:


- Yil darakchisi
- Qishki qovun
- Tansiq non
- Jo'sh-qin
- Baquv-vat
- Askuya Janri
- Raq-qos anjoml
- Tanta-nali kun
- Kuch
- Mino-ra soat
- Vaqt asbo-bl
- Beza-nuvchi daraxt
- Viloyat mar-kazi
- Jurna-limiz
- Sov-g'a
- Samo-hodi-sasi
- Rivoj
- Yoz oyi
- Xona-ki gul
- Baxt
- Olqish jara-ngi
- Meva ichim-ligi
- Mad-hiya, qo'shiq
- Orom, dam olish
- Chega-ra, hu-dud
- Vaqt, lahza
- Vilo-yat
- Radio dastur
- Vaqt "kar voni"
- Maq-lov
- Shod, mam-nun
- Qish sporti
- Iz-zat
- Tashak-kur
- Dun-yo, borliq
- San-yat
- Shod-lik, se-vinch
- Dav-lat ramzi
- Za-far
- Sharqo-na yan-gi yil
- Evra-njng far-zandi
- Qut-lov
- Xok-key vatani
- Urma soz
- Aniq, nurli
- Say-yora
- Qish oyi

*Aziz o'quvchilar! Skanvord javoblarini belgilangan xonadan soat mili yo'nalishida yozing. Skanvordni to'g'ri hal etgan bo'lsangiz, chizmaning yuqori qismidagi aylanalardagi raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi mos harflar bilan almashtirib, muammonomani hal eting. Bunda ulardan tabrik so'zlarimizni bilib olishga muvaffaq bo'lasiz.*



## DINOZAVR IZLARI

Bundan million yil ilgari yashagan ulkan hayvon — dinozavr izlari Braziliyaning Paraiba shtatida topildi. Bu hayvonning izlari qotib ketgan botqoqlikni qazish natijasida aniqlandi. Olimlarning fikricha, iz qoldirgan dinozavrning uzunligi 10 metr bo'lib, panjalarining izlaridan va boshqa organlarining qoldiqlaridan uning og'irligini bemaol aniqlash mumkin. Braziliyaning «Veja» jurnali dinozavrning Afrikadan Shimoliy Sharqqa tomon kelganligini yozadi. Ma'lum bo'lishicha, yuz million yil ilgari Afrika va Janubiy Amerika bir qit'a bo'lgan ekan.



Foziljon ORIPOV tuzdi



BOSH MUHARRIR:  
**To'lqin HAYITOV**

Dizayner va sahifalovchi:  
**Fazliddin SHOYODGOROV**  
Navbatchi:  
**Gulyuz ORIFJONOVA**

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruz JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel.: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

Rassom:  
**Feruz MATYOQUBOV**

«O'zbekiston»  
nashriyat-matbaa ijodiy  
uyida chop etildi.  
Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq,  
ISSN 2010-6092

Adadi - 20456  
Buyurtma N: J 6632

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.